

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT week Uzbekistan 2025: Milliy texnologiyalar haftaligining yakunlari va ularning O'zbekiston IT-ekotizimiga ta'siri.....	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKILOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



РАЗВИТИЕ OPEN BANKING КАК ДРАЙВЕР ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОЙ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	80
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр ўғли	
NAVIGATING TAX RISKS ARISING IN THE MANAGEMENT OF ENTERPRISES.....	83
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
DVIGATELNING TASHQI TEZLIK TAVSIFNOMASIGA DVIGATEL QUVVATI, TIRSAKLI VALINING MAKSIMAL AYLANISHLAR SONI, SOATLI YONILG'I SARFI VA SOLISHTIRMA YONILG'I SARFLARIGA TA'SIRI.....	86
Abdug'aniyev Shohruh Oxunjon o'g'li, Abdusattorov Nodirjon Abduljalil o'g'li	
FROM TRADITIONAL BANKING TO FINTECH ECOSYSTEMS: PERFORMANCE IMPLICATIONS	90
Rano Parpieva	
ZAMONAVIY SHAROITDA MEHNAT MOTIVATSIYASI NAZARIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INSONIY MUNOSABATLAR MAKTABINING AHAMIYATI	92
Aslanov Aziz Mexmonovich	
ВОДНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ КОМПРОМИСС В СИСТЕМЕ ЦУР УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕЖЦЕЛЕВЫХ КОНФЛИКТОВ	96
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
THE ECONOMIC IMPORTANCE OF INTERNATIONAL TRADE AND ITS ROLE IN GLOBAL GROWTH	99
Nurova Farog'at Salohiddin qizi	
AHOLINING MOLIVAVIY FIRIBGARLIKKA ALDANISH EHTIMOLINI KAMAYTIRISHDA MOLIVAVIY TA'LIMNING O'RNI.....	102
Irgashev Anvar Farxodovich	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TASHQI SAVDONI OPTIMALLASHTIRISH VA ENERGETIKA XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	105
Nosirbekov Sanjarbek Toxirbekovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIVAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH	107
Turaboyev Ibroxim Ismoil o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	111
Xakimov Akbar Anvarovich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA NOMODDIY AKTIVLARNING IQTISODIY MAZMUN-MOHİYATI	114
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQIDAN OLINADIGAN SOLIQLAR VA MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ KODEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	117
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARI RAQAMLI INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISH	119
Hazratkulov Faxriyor Abdumuxammad o'g'li	
ОЦЕНКА ЛИДЕРСКОЙ ЗРЕЛОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	122
Абдусаламова Фароғат Сунатиллаевна	
STATE OF DEVELOPMENT AND DYNAMICS OF THE FRUIT PROCESSING INDUSTRY.....	125
Yusufova Laylo Gayrat kizi	
STARTAP LOYIHALARINING MILLIY IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	132
Ko'chimova Madinabonu Qaxramon qizi, Sheraliyev Nurbek Jumanazar o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI SAMARADORLIGI VA BOZOR QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING KO'P FAKTORLI MODELLARI.....	135
Jumatova Gulzar Maxmud qizi	



INNOVATSION RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURSLARINING SAMARADORLIGINI HISOBLASH USULLARI.....	139
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
INSTITUTIONAL FEATURES OF STATE REGULATION OF PRODUCT QUALITY MANAGEMENT	143
Atakulov Askad Raimkulovich	
TA'LIM MARKAZINING OBRO'SI VA RAQOBATBARDOSHLIGIGA MALAKALI XODIMLARNING TA'SIRINI BAHOLASH.....	146
Razzoqova Zebo Xusniddinovna	
THE IMPACT OF RAPID TAX DISPUTE RESOLUTION SYSTEMS ON THE BUSINESS ENVIRONMENT AND PROSPECTS FOR THEIR DEVELOPMENT.....	149
Solihova Xumora Xasan kizi	
МОДЕЛИРОВАНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ ОБЩЕСТВА 5.0 НА УСТОЙЧИВОЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАН БРИКС-Т.....	153
Калдибаев Нурлан Алимжанович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNING INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIRI.....	156
Kurashev Sobir Saidmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O'ZIGA XOS JIHATLARI	159
Po'latova Mavluda Sanjar qizi	
ПРИЗНАКИ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ И УПРАВЛЕНИЕ ИХ КАЧЕСТВОМ.....	162
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS.....	165
Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli	
MADANIYLASHTIRILGAN GO'SHTNING QAYTA ISHLANGAN GO'SHT MAHSULOTLARI XOM ASHYOSIDA ISHTIROKI.....	168
Xaydarova Sitara Suranbay qizi	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	170
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI.....	173
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI, TURLARI VA XUSUSIYATLARI.....	175
Hakimova Nargiza Abduraimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TADBIQ QILISH YO'NALISHLARI VA INSTRUMENTLARI TAHLILI	180
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF SUBJECTS ENGAGED IN MEAT PROCESSING IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE DIRECTION.....	184
Sitara Khaydarova	
"XAVFSIZ SHAHAR" TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	188
Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA DAVLAT MOLIVASI STATISTIKASI: JORIY HOLAT VA ISTIQBOLLI REJALARI.....	190
Artikov Baxtiyor Maxkamovich	
DAVLAT QARZINI SAMARALI BOSHQARISH VA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	193
Sattoriy Fayzulloh Abdijabbor o'g'li	



O'Z KAPITALI HISOBINI YURITISHDA XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARINI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	196
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
THE IMPACT OF MANAGING THE INTERREGIONAL MOBILIZATION OF QUALIFIED TEACHERS ON THE QUALITY OF EDUCATION.....	202
Karimov Dostonjon Karimovich	
O'ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI HOLATI.....	204
Suyarov Shaxzod Salim o'g'li	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.	206
Гимранова О. Б.	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH.....	209
Berdiyev Temurbek	
ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	213
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
ACADEMIC STAFF PERFORMANCE AND HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN MODERN UNIVERSITIES	218
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila	
IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI.....	223
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	226
Mannonov Shoxruhmirza Abdurashid o'g'li	



TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mannonov Shoxruhmirza Abdurashid o'g'li

«O'zbekiston temir yo'llari» AJ Iqtisodiy tahlil va prognozlash departamenti boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya. Mazkur tezisda transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Transportning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, transport tizimi, transport kompleksi va transport infratuzilmasi tushunchalarining mazmuni yoritilgan. Shuningdek, transport xizmatlari bozorining tarmoq xususiyatlari, temir yo'l transportida tabiiy monopoliya elementlarining namoyon bo'lishi, transport tizimining tarkibiy, funksional, texnologik va institutsional jihatlarini ko'rib chiqilgan. Yagona transport tizimining milliy iqtisodiyot tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqligi hamda transport infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: transport tizimi, iqtisodiy samaradorlik, temir yo'l transporti, transport infratuzilmasi, transport kompleksi, transport xizmatlari bozori, tabiiy monopoliya, institutsional munosabatlar, yagona transport tizimi, milliy iqtisodiyot.

Abstract. This thesis examines the theoretical foundations for improving the economic efficiency of the transport system. It describes the role of transport in the national economy and clarifies the concepts of the transport system, transport complex, and transport infrastructure. The sectoral characteristics of the transport services market, the manifestation of natural monopoly elements in railway transport, and the structural, functional, technological, and institutional aspects of the transport system are also considered. The interrelationship between the unified transport system and the sectors of the national economy, as well as the impact of transport infrastructure development on economic efficiency, is substantiated.

Keywords: transport system, economic efficiency, railway transport, transport infrastructure, transport complex, transport services market, natural monopoly, institutional relations, unified transport system, national economy.

Аннотация. В данном тезисе рассмотрены теоретические основы повышения экономической эффективности транспортной системы. Раскрыты роль транспорта в национальной экономике, а также содержание понятий «транспортная система», «транспортный комплекс» и «транспортная инфраструктура». Кроме того, проанализированы отраслевые особенности рынка транспортных услуг, проявление элементов естественной монополии на железнодорожном транспорте, структурные, функциональные, технологические и институциональные аспекты транспортной системы. Обоснованы взаимосвязь единой транспортной системы с отраслями национальной экономики и влияние развития транспортной инфраструктуры на экономическую эффективность.

Ключевые слова: транспортная система, экономическая эффективность, железнодорожный транспорт, транспортная инфраструктура, транспортный комплекс, рынок транспортных услуг, естественная монополия, институциональные отношения, единая транспортная система, национальная экономика.

KIRISH

Transport iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda, ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlarining uzluksizligini ta'minlovchi muhim infratuzilmaviy soha hisoblanadi. Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari muayyan xomashyo resurslarisiz rivojlanishi mumkin bo'lsa-da, zamonaviy transport tizimisiz mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Mamlakatdagi transport oqimlarini samarali tashkil etish rivojlangan transport infratuzilmasini shakllantirish va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llashni talab etadi.

Mazmun jihatdan «transport» atamasi ikki ma'noda qo'llanilishi mumkin: birinchidan, yuk va yo'lovchilarni tashishda foydalaniladigan texnik vositalar majmuini bildirish uchun; ikkinchidan, aholining transportga bo'lgan ehtiyojlarini uzluksiz va o'z vaqtida qondirishni ta'minlaydigan mamlakat iqtisodiyotining tarmog'i sifatida. Keng ma'noda «transport» tushunchasi transport faoliyatining barcha jabhalarini birlashtiradi. Tor ma'noda «transport» tushunchasidan foydalanish yuk aylanmasi, tashishning o'rtacha masofasi, yuk va yo'lovchi tashish tezligi kabi uning ishlashining texnik va hajm ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish bilan bog'liq. Transport hududning tarmoq tizimida alohida o'ringa ega (1.1-rasm). Ushbu tasnifda temir yo'l tarmog'i transportning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Temir yo'l transporti faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- temir yo'l transportida mahalliy (shahar atrofi), shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar hamda




yuklarni tashish;

- manyovr xizmatlarini ko'rsatish;
- korxonalarining kirish yo'llari bo'ylab tovarlarni tashish.

Temir yo'l transporti faoliyati yo'lovchi va yuk terminallari faoliyatini, saqlash va boshqa yordamchi faoliyatni o'z ichiga olmaydi. Transportni sanoat sifatida tavsiflash (shu jumladan, temir yo'l transporti sanoatini ajratish) ma'lum bir qiyinchilik tug'diradi. N. P. Tereshina fikricha, transport sanoati — bu o'ziga xos ichki hududiy-ishlab chiqarish va funksional tuzilmaga ega bo'lgan murakkab ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy tizim hisoblanadi.

O'zbekiston hududida bu transport turi yagona, tabiiy yaxlit ishlab chiqarish-texnologik kompleks sifatida faoliyat yuritadi. Umumiy temir yo'l tarmog'ining barqaror va samarali faoliyati O'zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini ta'minlash, mamlakat hududida sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirish, aholining turmush darajasi va yashash sharoitlarini yaxshilash hamda transport harakatchanligini oshirishning zarur sharti hisoblanadi.



1-rasm. Transport iqtisodiyot tarmoqlari tizimida¹.

Shu ma'noda u iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida ham, muomala sohasida tovar qiymatini yaratish jarayonini davom ettiruvchi moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida ham harakat qiladi². Biroq mazkur ta'rif transport sohasi tushunchasining tarkibi va chegaralarini to'liq aniqlash uchun yetarli emas.

Tarmoq bozorlari nazariyasi transport sanoatining tarkibi va chegaralarini aniqlash uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Unga ko'ra, «sanoat» tushunchasi o'xshash ishlab chiqarish jarayonlariga ega bo'lgan korxonalarni birlashtiradi. Tarmoq tushunchasi bozor tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi, shunga mos ravishda, iste'molchilar nuqtai nazaridan o'xshash, ya'ni bir-birini almashtiradigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi³. Tarmoq bozorlari nazariyasida tarmoq chegaralarini va tarmoq bozori chegaralarini belgilashga jiddiy e'tibor beriladi.

1 Экономика железнодорожного транспорта // под ред. Н.П.Терёшиной, Б.М.Липидуса, М.Ф.Трихункова. - М.: УМЦ ЖДТ, 2018. - 801 с.

2 Экономика железнодорожного транспорта // под ред. Н.П.Терёшиной, Б.М.Липидуса, М.Ф.Трихункова. - М.: УМЦ ЖДТ, 2018. - 801 с.

3 Вурос А.Д., Розанова Н.М. Экономика отраслевых рынков. - М.: ТЕИС, 2012.

Tarmoq chegaralarini belgilashning amaliy ahamiyati monopoliyaga qarshi tartibga solish zarurati bilan bog'liq va shuning uchun tarmoq yoki bozor chegaralarining turli xil ta'riflari tarmoq bozorida monopoliya mavjudligini aniqlashda turli xil natijalarga olib kelishi mumkin. Transport xizmatlari bozorida temir yo'l, avtomobil, havo va quvur transporti muayyan yo'nalishlarda o'zaro muqobil xizmatlarni taklif etishi sababli raqobat elementlari shakllanadi. Ammo tarmoq yondashuvi nuqtai nazaridan transport tarmog'i bir xil tarkibga ega emas; u har birida sezilarli darajada farq qiluvchi transport xizmatlarini ishlab chiqarish jarayoniga ega transport tarmoqlari majmui sifatida faoliyat yuritadi.

Shunga ko'ra, bozor tuzilmasi transportning turli yo'nalishlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Temir yo'l transportida infratuzilmaning yaxlitligi va katta kapital xarajatlari sababli tabiiy monopoliya elementlari avtomobil va havo transportiga nisbatan u proq namoyon bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, tarmoq iqtisodiyoti nuqtai nazaridan transport tizimini mamlakatning quyi tizimi deb hisoblash mumkin va bunda iqtisodiyotning transport quyi tizimi moddiy-texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy va institutsional munosabatlarni, ya'ni mamlakat transport tizimining ishlashi va rivojlanishida mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari hamda javobgarlik darajasini tartibga soluvchi munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Professor M. B. Petrov transport tizimi u bilan bog'liq ishlab chiqarish tizimlariga nisbatan tizimni shakllantiruvchi salohiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur jihatdan transport tizimi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida namoyon bo'ladi. Yakuniy mahsulotga bo'lgan talab korxonalar tomonidan tovarlar iste'molini keltirib chiqaradi, bu esa, o'z navbatida, transportga bo'lgan talabning asosiy omili hisoblanadi.

«Birlamchi xizmatlar — qayta ishlash, mahsulot ishlab chiqarish, iste'mol iqtisodiy va texnologik oqimlariga transport xizmatlarini kiritish orqali transport tizimi ularning natijaviyligi va transport xarajatlarini optimallashtirib hamda tashuvlarga to'lovga qodir talabni samarali boshqarib, bunday tarmoqlararo tizimlarda tizimli ulanish darajasida ta'sir ko'rsatishga qodir»⁴.

M. B. Petrov transport tizimining quyidagi jihatlarini ajratadi⁵:

- transport tizimining jami xususiyatlarini — strukturaviy, funksional va texnologik xususiyatlarini birlashtiruvchi tizimli tashkilotning o'zi. Bunda transport tizimi yirik tashkiliy tizimlar toifasiga kiradi;

- transport tizimining asosiy texnologiyalari jamlamasini ham, transport tizimi xizmat ko'rsatadigan texnologik agregatlarni ham birlashtirgan texnologik tashkilot, uning mahsuloti, asosan, ma'lum bir jamlama doirasida qo'llaniladigan ketma-ket ixtisoslashtirilgan texnologik jarayonlardan iborat. Bunday jamlamalar transport ehtiyojlarining eng barqaror va uzoq muddatli manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ular transport tizimlarini tashkil qilish uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin;

- institutsional tashkilot — bu jihatdan tashkilot faoliyat subyektlarining tartiblangan majmui sifatida tushuniladi. Transport tizimini institutsional o'rganish zarurati institutsional tuzilmaning yetakchi tashqi va ichki omilga aylanishi bilan belgilanadi, uning muvofiqligi transport tizimining asosiy parametrlari, shu jumladan, imkoniyatlari va samaradorligiga bog'liq;

- boshqaruv funksiyasi sifatida tashkilot.

Tanlangan elementlar, bizning fikrimizcha, transport tizimini iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy quyi tizimi sifatida to'liq tavsiflaydi va mintaqaning transport quyi tizimini tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin. Biroq mintaqaning transport quyi tizimini alohida ajratish jarayonida muayyan tashkiliy va texnologik murakkabliklar yuzaga keladi.

Mazkur murakkabliklar mamlakat transport tizimining yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi va uni texnologik hamda tashkiliy jihatdan mintaqaviy quyi tizimlarga bo'lish qiyinligi bilan bog'liq. Transport tizimining birligi bir qator shartlar bilan ta'minlanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy (bog'lanish yo'llarining aksariyati davlat mulki hisoblanadi);
- texnologik (transport jarayonining yagonaligi tashuvlar o'rtasida transportni eng maqbul taqsimlashni, ularning rivojlanishi va texnik jihozlanishini muvofiqlashtirishni talab qiladi);
- iqtisodiy-geografik (iqtisodiyot tarmoqlari va iqtisodiy tumanlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar hududiy ishlab chiqarish komplekslari va bog'lanishlar tarmog'ining mutanosib rivojlanishini taqozo etadi).

Transport tizimining qayd etilgan yaxlitligi «yagona transport tizimi» tushunchasida ifodalanadi.

Yagona transport tizimi (YATT) — bu mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, transport xizmatlari ko'rsatishda bog'lanish va o'zaro ta'sir qiluvchi turli transport turlari majmuasi⁶.

Yagona transport tizimi milliy iqtisodiyotning quyi tizimi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- umumiy foydalanishdagi va umumiy foydalanishda bo'lmagan barcha turdagi transport tarmoqlari;

4 Петров М.Б. Эволюционные закономерности организации региональной системы транспорта // Теория эволюции социально-экономических систем / под ред. акад. А.И.Татаркина, акад. В.И.Маевского; РАН, УрО, Ин-т экономики. - М.: Экономика, 2018. - С. 401-419.

5 Экономика железнодорожного транспорта / под ред. Н.П.Терёшиной, Б.М.Лапидуса, М.Ф.Трихункова. - М.: УМЦ ЖДТ, 2016. - 801 с.

6 Аксенов И.Я. Единая транспортная система. — М.: Транспорт, 2009. - 213 с.



- harakatlanuvchi transport vositalari;
- barcha turdagi transportni boshqarish tizimi;
- mehnat resurslari.

Umuman olganda, «transport» tushunchasi yagona transport tizimining sinonimi sifatida ishlatiladi.

Bu tushunchalar bilan bir qatorda va ularning sinonimi sifatida «transport kompleksi» tushunchasi keng qo'llaniladi. Transport tizimidan farqli ravishda, ushbu atamani qo'llash, birinchi navbatda, transport sanoatining muhandislik-texnik tarkibiy qismiga, ya'ni barcha turdagi transport vositalarining yig'indisiga va transport infratuzilmasiga qaratilgan. Iqtisodchi A. A. Chebotayev fikricha, hududiy transport kompleksi — bu hududiy obyekt va uning iqtisodiyotiga tegishli transport⁷.

Rus tadqiqotchilari V. G. Galaburdi, V. A. Persianova, A. A. Timoshina tadqiqotlarida transport majmuasi deb yuk va yo'lovchilarni tashish ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan iqtisodiyot tarmoqlarining jamlamasi tushuniladi. U yuklar va yo'lovchilarni tashish jarayonini ta'minlaydigan transportning o'zini va moddiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi — «transport sanoati»ni (transport mashinasozligi, transport qurilishi, tashishlarning moddiy-texnik ta'minoti), transport xodimlarini tayyorlash, loyihalash va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradigan muassasalar va tashkilotlarni o'z ichiga oladi⁸.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining elementi sifatida transport kompleksining faoliyati va rivojlanishi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi (G. N. Kovshov)⁹:

- obyektlarni qurish va ularning quvvatini oshirishning uzoq muddatlari;
- infratuzilma obyektlariga yo'naltirilgan investitsiyalarning uzoq muddatda qoplanishi, chunki ko'p hollarda infratuzilma obyektlarini yaratish samaradorligi uzoq davrlarda, shu jumladan, asosiy va boshqa tarmoqlarda namoyon bo'ladi;
- uzoq muddatli foydalanish, fondlarning notekis yuklanishi xos bo'lgan dinamik ish rejimi, bu katta quvvat zaxiralarini talab qiladi;
- milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bilan yaqin hamkorlik;
- transport moddiy mahsulot yaratmaydi, transport mahsulotini to'plash va saqlash mumkin emas;
- transport obyektlarining ishlashi inersiya xususiyatiga ega;
- o'zaro ta'sir qiluvchi elementlarning ko'pligi bilan bog'liq bo'lgan sezilarli sinergetik samara yuzaga keladi;
- transportning ishlashi va rivojlanishi ta'sirining muhim qismi uning faoliyat ko'rsatkichlarida aks ettirilmaydi, balki asosiy va boshqa tarmoqlarda hamda ijtimoiy sohada namoyon bo'ladi.

Transport majmuasi iqtisodiyot tarmoqlarining yig'indisi bo'lib, ayni paytda ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga kiradi (Y. N. Gladuyuk, V. A. Dobrosyuk, S. P. Semenov). Transport omilining infratuzilma elementi sifatida tavsiflanishi mintaqaviy iqtisodiyot an'analari mos keladi, biroq u «transport infratuzilmasi» tushunchasining mazmuni va tarkibi nuqtai nazaridan ham qo'shimcha ravishda aniqlashtirishni talab qiladi.

Bozor infratuzilmasini taqsimlashning bir qator nazariy konsepsiyalari mavjud: qo'shimcha xarajatlar, taqsimlash, institutsional, transport, logistika va marketing konsepsiyalari.

Shunday qilib, N. Y. Kalyujnova ta'kidlaydiki, infratuzilmaning shakllanishi tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarni muvofiqlashtirish vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport infratuzilmasi quruqlik, suv va havo yo'llari, dengiz va daryo portlari, transport terminallarini o'z ichiga oladi. Muayyan hududda turli xil transport turlari uchun turli xil bog'lanish yo'nalishlarining mavjudligi, odatda, transport tarmog'i deb ataladi. Transport tarmog'ining shakllanishi va uning zichligi, eng avvalo, asosiy transport va xo'jalik aloqalarining yo'nalishi va imkoniyatlariga qaratilgan hududning ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi va taqsimlanishiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Экономика железнодорожного транспорта : учебник для вузов железнодорожного транспорта / под ред. Н. П. Терёшиной, Б. М. Лapidуса, М. Ф. Трихункова. — Москва : Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте, 2006. — 801 с.
2. Вурос, А. Д. Экономика отраслевых рынков : учебник / А. Д. Вурос, Н. М. Розанова. — Москва : Экономический факультет МГУ : ТЕИС, 2002. — 253 с.
3. Вельможин, А. В. Теория транспортных процессов и систем : учебное пособие / А. В. Вельможин, В. А. Гудков, Л. Б. Миротин ; под ред. Л. Б. Миротина. — Москва : Транспорт, 1998. — 167 с. — ISBN 5-277-01877-8.
4. Петров, М. Б. Эволюционные закономерности организации региональной системы транспорта / М. Б. Петров //

7 Чеботаев А.А. Геотранспортные ресурсы России. — М.: Экономика, 2007. - 454 с.

8 Галабурда В.Г., Персианов В.А., Тимошин А.А. Единая транспортная система. — М.: Транспорт, 2001. - 303 с.

9 Ковшов Г.Н. Моделирование основных направлений развития транспорта в системе народнохозяйственного планирования. — М: Наука, 1985. - 198 с.



Теория эволюции социально-экономических систем / под ред. А. И. Татаркина, В. И. Маевского. — Екатеринбург : Институт экономики УрО РАН ; Москва : Экономика, 2008. — С. 401–419.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100